


“TASDIQLAYMAN”
A. Ishanxodjayev
Jamoatchilik kengashi raisi
2024-yil 9 -sentabr

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi
BAYONI

2024-yil 5-sentabr

1 -son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: A. Ishanxodjayev, Kengash raisi, O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

Ishtirok

etganlar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Taklif

etilganlar: Sh.Shermatov, Raqamli texnologiyalar vaziri, Vazirlik markaziy apparatining tegishli boshqarma va bo‘linmalari rahbarlari

Yig‘ilish

o‘tish joyi: Raqamli texnologiyalar vazirligi majlislar zali

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a‘zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 19 nafar a‘zosidan 17 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig‘ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni mazmun-mohiyati va unda belgilangan vazifalar to‘g‘risida

II. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi tarkibi, maqsad va vazifalari to‘g‘risida

(Sh.Shermatov, H.Muhitdinov, R.Asqarov, A. Ishanxodjaev, G‘.Ziyayev, A.Fayzullayev, R.Mamatqulov, H.Ermatov, A.Djalalov,... Sh.Shermatov)

Yig‘ilishni Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov kirish so‘zi bilan ochib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashini tashkil

qilish va faoliyatini yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilgan ishlarga to'xtalib o'tdi. Xususan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori bilan har bir davlat organi huzurida Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risidagi taklif ma'qullangangini;

Davlatimiz Rahbarining "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmonida ham jamoatchilik kengashlari faoliyatiga alohida e'tibor qaratilganligini;

mazkur Farmonda belgilangan tartiblarga asosan Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangi tarkibi Vazirlikning 2024-yil 22-iyuldagi tegishli buyrug'i bilan qayta tasdiqlanganligini;

yangilangan tarkibga O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston mahallalar uyushmasi, "Ishonch" va "Доверия" gazetalari, "Mening yurtim" telekanali, "Xabar" gazetasi, "Digital Generation Uzbekistan" NTdan rahbar darajasidagi vakillar kiritilganligini;

O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi Ishanxodjayev Asror Aslanovich Kengash rais etib tayinlanganligini;

Jamoatchilik kengashining 19 nafar a'zosidan 13 nafari yoki 68 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari tashkil etayotganligini;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining nafaqat Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatini, balki mamlakatimizda olib borilayotgan raqamlashtirish va elektron hukumat yo'nalishidagi ishlarni yanada rivojlantirish, sohani takomillashtirish borasidagi taklif va mulohazalari muhim ekanligini alohida ta'kidladi.

Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi A.Ishanxodjayev Kengash tarkibi, maqsadi, uning oldiga qo'yilgan vazifalar, huquq va majburiyatlari, keyingi rejalari haqida to'xtaldi.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashi davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarishini, davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishini, davlat organi faoliyatining ochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring

qilishini, davlat organi faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishini aytib o'tdi.

Yig'ilishda Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni mazmun-mohiyati, unda belgilab berilgan vazifalar, xususan, Jamoatchilik kengashlari faoliyatiga oid bandlar, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar to'g'risida batafsil ma'lumot berildi. Jumladan:

Mazkur Farmon bilan:

fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan;

Oliy Majlis, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo'shib yuborish va ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondini hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo'linmalarini tashkil etish bo'yicha taklif ma'qullangan.

Ushbu Farmonning Jamoatchilik kengashlari faoliyatiga aloqador qismi, ya'ni 8-bandida:

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislarini fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlash;

har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligini baholash va uning natijalarini e'lon qilib borish;

jamoatchilik kengashlarining faol a'zolarini davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirib borish belgilab berilgan.

"Yuksalish" harakatiga har yili jamoatchilik kengashlari faoliyat samaradorligini baholash va uning natijalarini o'z rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish tavsiya etilgan.

Shuningdek, Farmonning 9-bandida davlat organlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga:

ikki oy muddatda o'zlarining huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hamda mazkur Farmonning 8-bandida nazarda tutilgan talablar asosida qayta tashkil etish;

"Yuksalish" harakatiga uning so'roviga asosan jamoatchilik kengashlari faoliyatiga doir ma'lumotlarni taqdim etib borilishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

Qizg'in muhokamalarga boy o'tgan yig'ilishda kengash a'zolari - "Ishonch" va "Ishonch-Доверия" gazetalari bosh muharriri H.Ermatov, "Digital Generation Uzbekistan" NNT direktori A.Jalolov, "Mening yurtim" telekanali jurnalisti Yu.Olimova, soha faxriysi H.Muhitdinov va boshqalar o'z fikr-mulohazalarini bildirib, Kengash faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilish bo'yicha takliflar berishdi.

Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov Jamoatchilik kengashi a'zolarini "UzINFOCOM" yagona integrator" MChJ faoliyati, mazkur tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishtirdi. Ularga Vazirlik faoliyatiga oid, shuningdek, mamlakatimizda raqamlashtirish, telekommunikatsiya, elektron hukumatni takomillashtirish yo'nalishida olib borilayotgan keng qamrovli ishlarga bag'ishlangan videorolik taqdimoti o'tkazildi.

Yig'ilish so'ngida Jamoatchilik kengashining keyingi faoliyatini kengash a'zolarining takliflari asosida ishlab chiqiladigan reja asosida tashkil qilishga kelishib olindi.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar asosida **qaror qilindi:**

1. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatovning Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axboroti;

Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi A.Ishanxodjayev Kengash maqsadi, uning oldiga qo'yilgan vazifalar, keyingi rejalari haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolariga 15 kun muddatda kengash faoliyatini samarali tashkil qilish yuzasidan o'z takliflarini ishchi organga yozma ravishda kiritish tavsiya qilinsin.

Bunda, ushbu yo'nalishda keng jamoatchilikning ham takliflarini olish imkoniyati inobatga olinsin.

3. Jamoatchilik kengashi majlislarida Raqamli texnologiyalar faoliyatini yana-da takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishi hamda ularni Vazirlikka ko'rib chiqish hamda kelgusida amalga tatbiq etish masalalari yuzasidan ovoz berish yo'li bilan qarorlar qabul qilinishini inobatga olib, kengashning keyingi yig'ilishlarida kengash a'zolarining shaxsan qatnashishlari zarurligi belgilab qo'yilsin.

5. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 9-bandida davlat organlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ikki oy muddatda o'zlarining huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hamda mazkur Farmonning 8-bandida nazarda tutilgan talablar asosida qayta tashkil etish belgilanganligini inobatga olib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashini qayta tashkil qilish;

Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan taqdim qilingan takliflarni umumlashtirsin, uni kengashning navbatdagi yig'ilishiga muhokama qilish va tasdiqlash uchun kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonida "Yuksalish" harakatiga har yili jamoatchilik kengashlari faoliyat samaradorligini baholash va uning natijalarini o'z rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish tavsiya etilganligini inobatga olib, Harakat bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish;

Jamoatchilik kengashi yig'ilish o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarning O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, "Yuksalish" harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritish;

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a'zolariga yetkazish choralari ko'rsin.

Kengash kotibi

N. Abdullayev